



O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMALAR HOLATI

Azimxonova Sevara

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0005-1902-4453

sevaraazimxonova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola O'zbekistonda turizm sohasining bugungi holatini, infratuzilma obyektlarining rivojlanganlik darajasini va ularning turizm rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Maqolada shuningdek, transport tizimi, mehmonxona xizmatlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jamoat xavfsizligi kabi infratuzilma elementlarining turizmning rivojlanishidagi roli va ularning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, infratuzilmani yaxshilash orqali turizm sohasida erishish mumkin bo'lgan ijobiy o'zgarishlar va yechimini kutayotgan muammolar yoritiladi.

Kalit so'zlar: turizm, turizm infratuzilmasi, rivojlanish, transport, turistik xizmatlar, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish.

СОСТОЯНИЕ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Азимхонова Севара

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние сферы туризма в Узбекистане, уровень развития инфраструктурных объектов и их влияние на развитие туризма. В статье также рассматривается роль элементов инфраструктуры, таких как транспортная система, гостиничные услуги, информационно-коммуникационные технологии и общественная безопасность, в развитии туризма и их взаимосвязь. Кроме того, освещаются положительные изменения, которые можно достичь посредством улучшения инфраструктуры, и проблемы, ожидающие своего решения.

Ключевые слова: туризм, туристическая инфраструктура, развитие, транспорт, туристические услуги, инвестиции, экономический рост.

STATE OF INFRASTRUCTURE IN TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Azimkhonova Sevara

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes the current state of the tourism sector in Uzbekistan, the level of development of its infrastructure facilities, and their impact on tourism growth. The article also examines the role of infrastructure elements such as the transport system, hotel services, information and communication technologies, and public safety in the development of tourism and their interconnections. Additionally, it highlights the positive changes that can be achieved in the tourism sector through the improvement of infrastructure and addresses the problems that await solutions.

Keywords: tourism, tourism infrastructure, development, transport, tourist services, investments, economic growth.

Kirish.

Jahon iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lgan turizm so'nggi yillarda o'zining jadal rivojlanishi bilan alohida ajralib turibdi. Bu jarayonda har bir davlat o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, ushbu sohani yanada takomillashtirishga intilmoqda. Turizmning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki xalqlar o'rtasidagi o'zaro madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga, aholining bandligini oshirish, mintaqalar, hududlar infratuzilmasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, boy tarixiy va madaniy merosga ega O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun turizmning ahamiyati beqiyosdir. Biroq, turizmning rivojlanishi faqatgina tarixiy obidalar, tabiiy landshaftlarning mavjudligi bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy infratuzilmaning rivojlanganligi, ya'ni transport, joylashtirish, aloqa vositalari, umumiy ovqatlanish shaxobchalari, turistik obyektlarga yetib borish imkoniyatlari va boshqa xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanganligi, hamda turistik xizmatlarning sifati sayyohlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki turistlarning mamlakatga sayohat qilish istagi va ularning sayohatdan oladigan taassurotlari ko'p jihatdan aynan infratuzilmaning sifati bilan belgilanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada bir qator davlat dasturlari, farmon va qarorlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son Farmoni bilan turizm sohasida yangi bosqichga qadam qo'yildi. Ushbu farmon turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sohaga investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan muhim chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi (Farmon, 2024). Farmonda belgilangan vazifalar, turizm infratuzilmasini takomillashtirish, mehmonxona va transport xizmatlarini yaxshilash, yangi turistik marshrutlarni yaratish kabi yo'nalishlar o'z aksini topgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-sentabrdagi 559-son qarori ham turizm infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Qaror, 2020). Qarorga muvofiq, turizm sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish, turistik hududlarni obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Bu esa, o'z navbatida, sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratish hamda turizmning rivojlanishiga olib keladi.


Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son qarori (Qaror, 2024) hamda, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son qarori ham turizm sohasida olib borilayotgan islohotlarning bir qismi hisoblanadi (Qaror, 2019). Mazkur qarorlar orqali turizm sohasini tartibga solish, turizm xizmatlari sifatini oshirish, yangi turistik yo'nalishlarni yaratish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu farmon va qarorlar turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar negizida O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning muhimligini ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash joizki, turizm infratuzilmasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki aholining farovonligini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va mamlakatimizning xalqaro nufuzini oshirishga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Infratuzilma holatining turizm rivojlanishiga ta'sirini ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar o'rganib, infratuzilma turizm rivojlanishining asosiy omillaridan biri ekanligini ta'kidlashgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Greel va boshqalar (2015) tadqiqotida aqlli turizm konsepsiyasi va IoT texnologiyalarining turizm infratuzilmasiga integratsiyalashuvi sohaning innovatsion rivojlanishini ta'minlashini ko'rsatadi. 2022-yil holatiga ko'ra, global aqlli shaharlar bozorining hajmi 400 milliard AQSh dollaridan oshgan va bu ko'rsatkich turizm infratuzilmasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mustafa (2019) "Impact of Infrastructure on Tourism Development in Selected Tourism Destinations in Sri Lanka" maqolasida infratuzilma sifatining turizm rivojiga sezilarli ta'siri borligi, ayniqsa, transport tizimining qulayligi va turar joylarning sifati turizm oqimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, turizm sohasiga investitsiya kiritish orqali infratuzilmani yaxshilash zarurligi ta'kidlangan. Mandic, Mrnjavac va Kordićlar (2018)

tadqiqotlarida turizmning faqatgina diqqatga sazovor joylar bilan cheklanmasligi, balki rekreatsion imkoniyatlar va ko'ngilochar obyektlar orqali ham boyitilishi ta'kidlanadi. Shuningdek mualliflar "sifatli turar joylar, yaxshi transport tizimi va turli xil ko'ngilochar obyektlarning mavjudligi turistlarni jalb qilish va ularni uzoqroq muddat qolishi uchun juda muhim" va aynan rekreatsion infratuzilmani rejalashtirish va tashkil etishda turistlar ehtiyojlariga ko'proq e'tibor berilishi kerakligi ta'kidlab o'tiladi. Hamda, dam olish maskanlari va ko'ngilochar joylar turizm uchun shunchaki qo'shimcha emas, balki sayohatning ajralmas bir qismidir degan fikrni ilgari suradilar. Branko va boshqalar (2023) "The importance of tourist infrastructure for the sustainable development of tourism" nomli maqolalarida turizm infratuzilmasini rivojlantirishning boshqa bir qirrasiga, ya'ni uning barqarorlik tamoyillariga e'tibor qaratishgan. Turizm infratuzilmasi barqaror turizmning asosi ekanligi va ekologik toza infratuzilmani yaratish va uni samarali boshqarish esa turizm rivojlanishi uchun muhimligini ta'kidlashadi ular. Bu turizm kelajak avlodlar haqida qayg'urishimiz kerakligini, faqatgina qulaylik emas, balki atrof-muhitga ham e'tibor qaratishimiz lozimligini eslatib turadi. Jovicic (2019) shahar infratuzilmasining turizm infratuzilmasiga qo'shadigan hissasi va o'zaro aloqadorligi, shu bilan birga, aqli shahar konsepsiyasining turizmni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilib, urbanizatsiya jarayoni tezlashayotgan sharoitda shahar infratuzilmasiga investitsiyalar turizm sohasini rivojlantirish uchun ham muhimligini ta'kidlagan. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, jahon aholisining 56% dan ortig'i shaharlarda yashaydi va bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 68% ga yetishi bashorat qilinmoqda.

Mamlakatimiz ilmiy tadqiqotchilari olimi DSc. Norchayev (2021) turizm infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalarini keng qamrovli tarzda tahlil qilgan. Unda infratuzilma tushunchasining nazariy asoslari, uning tarkibiy elementlari va funksional jihatlari batafsil yoritiladi. Muallifning fikricha turizm infratuzilmasi deganda, turistlarning oshib borayotgan talablarini qondirish uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va obyektlar majmuasi, ya'ni nafaqat moddiy obyektlar (mehmonxonalar, transport, ovqatlantirish majmualari), balki ijtimoiy-madaniy obyektlar (muzeylar, teatrlashtirilgan tomoshalar) va ma'lumot-kommunikatsiya tizimlari ham tushuniladi. Bu esa quyidagi rasmda o'z aksini topgan (1-rasm)



1-rasm. Turizm infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi (Norchayev, 2021)

Shuningdek uning tadqiqotlarida O'zbekiston turizm infratuzilmasining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni hal etishning ilmiy-amaliy yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Xususan, mintaqaviy infratuzilmaning rivojlanish darajasining bir xil emasligi, transport ta'minotining yetishmasligi, xizmat ko'rsatish sifatining pastligi kabi muammolarga e'tibor qaralib turizm infratuzilmasi muammolarini hal etish va uni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo'nalishlarni taklif qilgan (Norchayev, 2021).

1-jadval

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish asosiy yo'nalishlari

1.	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Raqamli platformalar, elektron to'lov tizimlari va onlayn xizmatlarni rivojlantirish orqali turizm sohasidagi shaffoflik va qulaylikni oshirish.
2.	Investitsiyalarni jalb qilish	Turizm infratuzilmasiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish.
3.	Barqaror turizmni ta'minlash	Ekologik turizm, madaniy turizm va sotsial turizm kabi yo'nalishlarni rivojlantirish orqali turizmning ijtimoiy-ekologik barqarorligini ta'minlash.
4.	Infratuzilmani diversifikatsiya qilish	Turli turistik mahsulotlar uchun mos infratuzilmani yaratish, masalan, ekoturizm uchun tabiiy resurslarga tayangan infratuzilmani rivojlantirish.

Raximova (2024) esa maqolasida turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishning turli manbalari va mexanizmlarini tahlil qilib, innovatsiyalarturizm infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omili va uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, hamda innovatsiyalarni joriy etishning quyidagi asosiy manbalarini ko'rsatgan:

Ilmiy tadqiqotlar. Turizm sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish, yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish.

Texnologik yangiliklar. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, virtual reallik va boshqa zamonaviy texnologiyalardan turizm sohasida foydalanish.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish, turizm sohasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga davlat investitsiyalarini yo'naltirish.

Xususiy sektor ishtiroki. Xususiy investitsiyalarni jalb qilish, startup loyihalarni rivojlantirish va xususiy kompaniyalar tomonidan turizm infratuzilmasiga sarmoya kiritish.

Xalqaro hamkorlik. Xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, ilg'or tajribalarni o'rganish va texnologiyalarni transfer qilish.

Jumaniyazova (2024) o'z tadqiqotida, turizm infratuzilmasining o'ziga xos jihatlari va strukturaviy elementlarini ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilgan. Turizm infratuzilmasi murakkab va ko'p qirrali tizim sifatida ta'riflanib, uning asosiy elementlari orasida transport, turar joylar, ovqatlanish, dam olish va ko'ngilochar obyektlar, shuningdek, turistik xizmatlar va axborot yetkazib beruvchi tizimlar ham borligi ko'rsatilgan. Muallif shuningdek, turizm infratuzilmasi o'zining bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta'kidlagan. Avvalo, turizm infratuzilmasi komplekslik xususiyatiga ega, ya'ni turli elementlardan iborat va ular birgalikda ishlashi zarur. Mintaqaviylik ham muhim, chunki infratuzilma mintaqaning o'ziga xos sharoitlari, iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti va tabiatiga mos ravishda rivojlanadi. Yana bir jihati, infratuzilma moslashuvchan bo'lishi kerak, turistlarning talablariga va turizm sohasidagi yangiliklarga tezda moslasha olishi zarur. Shu bilan birgalikda, turizm infratuzilmasi nafaqat iqtisodiy manfaatlariga xizmat qiladi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega, madaniyat va ekologiyaga ham ta'sir qiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasi turizmning barqaror o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotchilar turizm infratuzilmasini rivojlantirishda texnologiyalarning o'zni, aqlli turizm konsepsiyasini qo'llash, davlat investitsiyalarining ahamiyati va xalqaro moliya institutlarining o'zni kabi muhim masalalarni o'rganishgan. Biroq, infratuzilmaning turizmni har tomonlama rivojlanishiga ta'siri yetartlicha yoritilmagan. Ushbu maqola esa masalaning shu kabi bir qancha jihatlarini o'z ichiga olgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi, adabiyotlar, statistik tahlil, qiyoslash, kuzatish kabi metodlardan foydalanilib, turizm infratuzilmasi va uning rivojlanishi, ushbu mavzuga oid, Prezidentimizning farmon, qarorlari, tadqiqotlar, xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy maqolalari, dissertatsiyalar va statistika ma'lumotlari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Turizm infratuzilmasi turli jabhalarni o'z ichiga oladi va ularning har biri o'z o'rniga ega. Masalan, yaxshi yo'llar, qulay transport, zamonaviy aeroportlar sayyohlarning tez va oson harakatlanishini ta'minlasa, qulay va sifatli mehmonxonalar, guesthouslar va boshqa turar joylar sayyohlarning dam olishlari uchun zarur. Telekommunikatsiya va internetning yaxshi ishlashi sayyohlarning aloqada bo'lishlari, ma'lumot olishlari va xizmatlardan foydalanishlari uchun muhimdir. Shuningdek, restoranlar, oziq-ovqat do'konlari, o'yin-kulgi maskanlari va turistik xizmatlar ham infratuzilmaning muhim qismi hisoblanadi. Bularning barchasi bir-biriga bog'liq va ular teng barobar faoliyat olib borishi zarur. Turizm infratuzilmasi nafaqat sayyohlar uchun qulay sharoit yaratadi, balki mamlakat iqtisodiyoti va barqaror rivojlanishiga ham muhim hissa qo'shadi. Uning sifatini doimiy ravishda yaxshilash va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanib, turizm sohasining yanada o'sishiga erishish mumkin.

So'nngi yillarda davlatimizning turizm sohasiga kuchli e'tibor qaratayotganligi sababli ba'zi muammolarga qaramasdan hududlarda turistik infratuzilma holati yaxshilanib bormoqda. Buni sayyohlar oqiming oshib borishi bilan ham izohlash mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni o'tgan vaqt bilan solishtirilganda pandemiyadan oldingi ko'rsatkichga erishdi, ya'ni 10 milliondan oshiq sayyoh tashrif buyurgan va bu o'tgan yilga nisbatan ... foizga ko'p. 2025-yilda bu miqdorni qariyb 12 millionga yetkazish reja qilingan:

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlari, ming kishi (2017-2024)


№	Kirish va chiqish turizmi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Xorijiy turistlar	2 690,1	5 346,2	6 748,5	1 504,1	1 881,3	5 232,78	6 626,3	10285 0
2.	Ichki turistlar	10562,1	12489,2	14748,0	3 534,1	5 813,9	11435,5	20638,14	22670,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

O'zbekistonda 2017-2019-yillar oralig'ida mamlakatga xorijiy va mahalliy turistlar tashrifi yildan-yilga o'sib borganini kuzatish mumkin. 2020-2021-yillar barcha davlatlarda turizm sanoatida tiklanish davri bo'ldi va pandemiyadan keyingi turizm darajasi oshishi 2022-yildan boshlandi. Bunga asosiy sabablar sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi 232-son qaroriga muvofiq "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil dasturi" (Qaror, 2022) doirasida belgilangan imtiyozlar va to'lovlardagi chegirmalar, shuningdek,

viloyatlardagi turizm qishlog'i hamda mahallalari sonining oshishi, yangi mehmon uylari va xostellar faoliyatining yo'lga qo'yilishi, turmarshrut yo'nalishlarining ko'payishi bilan bog'liq.

2024-yil sayyohlik oqimining asosiy qismini Qirg'iziston va Tojikiston fuqarolari tashkil etdi, ularning har biridan 2,1 million sayyohlar tashrif buyurdi. Ulardan keyin 1,4 million sayyoh bilan Qozog'iston va 741,2 ming sayyoh bilan Rossiya bormoqda. O'zbekistonga Turkmanistondan 171,2 ming sayyoh tashriflarni amalga oshirgan. Bulardan tashqari kuchli o'nlikka Turkiya (108 ming), Xitoy (66,6 ming), Hindiston (63,4 ming), Janubiy Koreya (39,1 ming) va Afg'oniston (38 ming) ham kirdi. (2-rasm)



2-rasm. O'zbekistonga qo'shni mamlakatlardan kelgan turistlar tashrifi tahlili

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

Yuqorida ta'kidlanganidek yildan-yilga sayyohlar sonini ortib borishi infratuzilma holati ularning talablariga javob berishi bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, O'zbekiston turizm infratuzilmasining ayni vaqtadgi holatini ko'rib o'tamiz. Birinchi navbatda, turizm infratuzilmasi asosiy tashkil etuvchilaridan biri avtomobil yo'llari hisoblanib, hozirgi vaqtda mavjud avtomobil yo'llarining uzunligi 184 000 km ni tashkil qiladi. Bular quyidagicha:

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llar – 42,9 ming km ni tashkil qiladi (Avtomobil yo'llari qo'mitasi balansida).

Shu jumladan: xalqaro ahamiyatdagi – 3 981 km, davlat ahamiyatidagi – 14 100 km, mahalliy ahamiyatdagi – 24 614 km. Respublika hududida joylashgan ko'chalari, ichki xo'jaliklararo yo'llari, qishloq ko'chalari, shahar tipidagi qishloq ko'chalari – 116 560 km ni tashkil qiladi (Mahalliy hokimliklar balansida). Shu jumladan: shahar ko'chalari – 7 125 km, tuman markazlari ko'chalari – 12 530 km, qishloq aholi punktlari – 49 383 km, shahar aholi punktlari – 15 456 km, xo'jaliklararo qishloq yo'llari – 32 066 km. Yuridik tashkilotlar yo'llari esa – 24 745 km ni tashkil qiladi (Yuridik shaxslar balansida) (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, 2025). Mamlakatimizda avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va yangi yo'llar qurish ishlari olib borilmoqda. Bu sayyohlarning mamlakat bo'ylab erkin harakatlanishiga yordam beradi. Biroq, ayrim hududlarda yo'l infratuzilmasining sifati hali ham talabga javob bermaydi, bu esa turizm rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ko'pchilik uchun xavfsiz transport turi deb sanaluvchi "O'zbekiston temir yo'llari" AJ asosiy yo'llarining umumiy uzunligi bugungi kunda 7500 km dan oshdi (Railway.uz, 2025). Yo'lovchilarga har taraflama qulaylik yaratish maqsadida xorij mamlakatlaridan zamonaviy, shinam poyezdlar xarid qilindi. Masalan, "Afrosiyob" tezyurar poyezdlari. Bu kabi poyezdlar Samarqand, Buxoro, Xiva kabi mashhur turistik yo'nalishlarda sayohat vaqtini sezilarli darajada qisqartirib, sayyohlar uchun ma'qul bo'lmoqda. Ularning mamnunligini

2017–2023 yillar davomida temir yoʻl orqali sayohat qilgan turistlar soni 20%ga oʻsganligidan ham bilish mumkin.

Havo transporti oʻzining uzoq masofalarni tez fursatda bosib oʻtishi va yuqori sigʻimkorligi, xavfsiz transport turi ekanligi bilan ajralib turadi. 2021 yilgacha mahalliy reyslar va koʻplab xalqaro yoʻnalishlarda ham faqat bitta aviakompaniya xizmatidan foydalanish imkoniyati bilan cheklangan oʻzbekistonliklar bugun qariyb 11 ta aviakompaniya xizmatidan foydalanishi mumkin. Ularni quyidagi jadvalda koʻrish mumkin (kunu.uz, 2025):

3-jadval

Oʻzbekiston Respublikasining havo transporti maʼlumotlari

Aviakompaniya nomlari	Tashkil etilgan yili va manbasi	Tarkibidagi havo kemalari soni
1. UZBEKISTAN Airways	1992 (davlat)	43
2. Silkavia	2021 (davlat)	
3. UZBEKISTAN Express	2021 (davlat)	
4. Humoair	2021 (chet el kapitali)	2
5. QANOT ShARQ	2021 (xususiy kapital)	5
6. CENTRUM AIR	2023 (xususiy kapital)	6
7. Air Samarkand	2022 (xususiy kapital)	3
8. PANORAMA AIRWAYS	2022 (xususiy kapital)	1
9. Fly Khiva	2024 (xususiy kapital)	1
10. Tashkent AIR	2024 (xususiy kapital)	1
11. Asia Union Airlines	2022 (xususiy kapital)	2

Oʻzbekiston xalqaro aeroportlari, aviakompaniyalar soni va ular orqali amalga oshirilayotgan reyslar sonining ortishi mamlakatga xorijiy sayyohlarning tashrifini osonlashtirdi. Toshkent xalqaro aeroporti kabi yirik havo bandargohlari modernizatsiya qilinishi natijasida xizmat koʻrsatish sifati oshib, 2023-yilda xalqaro reyslar soni 2017-yilga nisbatan 35% ga oʻsdi.

Bugungi kunga kelib Oʻzbekistonda asosiy xizmatlar tarkibida turuvchi joylashtirish vositalari turi boʻlgan mehmonxonalar soni va xilma-xilligi ortib bormoqda. Xususan, xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar soni koʻpaymoqda.

Statistika agentligi maʼlumotlariga koʻra, 2023 yilning 1 yanvar holatiga respublikamizda faoliyat koʻrsatayotgan mehmonxonalar soni 1 088 tani tashkil etgan.

Mehmonxonalar darajasi (yulduzli) boʻyicha soni:

- 1 yulduzli – 231 ta
- 2 yulduzli – 36 ta
- 3 yulduzli – 120 ta
- 4 yulduzli – 24 ta
- 5 yulduzli – 5 ta

Mehmonxonalardan tashqari, guesthouslar kabi joylashtirish vositalari ham rivojlanmoqda. Bu esa, arzon narxlarda turar joy izlayotgan sayyohlar uchun imkoniyat yaratadi.

– yulduzli toifaga ega bo'lmaganlar – 672 ta

Shuningdek, Mamlakatda sanatoriya va dam olish maskanlarining mavjudligi, ayniqsa, sog'lomlashtirish turizmi uchun muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda 232 ta xostel, 452 ta oilaviy mehmon uyi, 3 ta sanatoriy va sog'lomlashtirish obyekti ochilib, jami soni 5526 taga, o'rinlar soni 141,1 mingtani tashkil qilmoqda (Stat.uz, 2025)..

Turizm infratuzilmasi muhim qismlaridan hisoblanuvchi kommunikatsiya va axborot texnologiyalari O'zbekistonda internet tarmoqlarining qamrovi va tezligi ortib bormoqda. Bu sayyohlar uchun o'z yaqinlari bilan aloqada bo'lish, turli ma'lumotlarni olish va xizmatlarni bron qilish uchun qulaylik yaratadi. Mobil aloqa operatorlarining xizmatlari mamlakatning barcha hududlarida mavjud bo'lishi va rivojlantirilishiga harakat qilinmoqda. Bu sayyohlarga doimiy aloqada bo'lish imkonini beradi. Yana bir e'tiborli jihatlardan biri mamlakatimizda turistik axborot markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu sayyohlarga o'z vaqtida kerakli ma'lumotlar va yordam olaoladilar. Shu bilan birga muammoli jihatini ham aytib o'tish lozim, hali barcha hududlar qamrab olinmagan.

Turistlar uchun zavqli, maroqli dam olishni tashkil etib, turistik xizmatlarni jamlab beruvchi turistik tashkilotlar, bugungi kunda mamlakatimizda 2725 ta va 2551 gid-ekskursovod faoliyat yuritmoqda. Malakali gidlar sonining ortishi sayyohlarga O'zbekiston tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizmning rivojlanishi bilan birga ovqatlanish xizmatlari ham tez sur'atlarda o'smoqda. Aholining daromadlari o'sishi, shahar hayot tarzining o'zgarishi ham sohaning rivojlanishiga ta'sir qilmoqda. Ko'plab yangi restoranlar, kafelar va tez ovqatlanish joylari ochilmoqda. Ayniqsa, zanjirli umumiy ovqatlanish majmualari tez rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda infratuzilma holati yaxshilanib bormoqda, bu esa turizm sohasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Xususan, ba'zi hududlarda yo'l infratuzilmasining sifati pastligi, mehmonxonalarning yetishmasligi va xizmat ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash zaruriyati mavjud.

Xulosa va takliflar.

Infratuzilma turizmning rivojlanishi uchun o'ta muhim. Transport (yo'llar, aeroportlar, temir yo'llar), mehmonxona va turar joylar, ovqatlanish joylari, aloqa vositalari (internet, mobil aloqa), sanitariya-gigiyena sharoitlari va boshqa xizmatlar turizmning sifatini va sayyohlar sonini bevosita belgilaydi. Yaxshi rivojlangan infratuzilma sayyohlarga qulaylik yaratadi, ularning ishonchlarini mustahkamlaydi va shu bilan mamlakat turizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda turizm infratuzilmasining rivojlanish darajasi keyingi yillarda sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Yangi mehmonxonalalar, aeroportlar va yo'llar qurildi. Biroq, hali ham muammolar mavjud, jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi, xizmat ko'rsatish sifatining pastligi, aloqa va transport tizimidagi ba'zi kamchiliklarni ta'kidlash mumkin. Bularga yechim sifatida quyidagi takliflar beriladi:

–Xizmat ko'rsatishning har bir yo'nalishi uchun alohida standartlarni ishlab chiqish, joriy etish va rioya etilishi yuzasidan muntazam nazorat va monitoring tizimini joriy etish.

–Xizmat ko'rsatish sohasidagi xodimlarning muntazam ravishda o'qitilishi va malakasini oshirib borilishi. Malakali xodimlarga ega bo'lish turizm sohasidagi korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi va sayyohlarning mamnunligini ta'minlaydi. Shuning uchun o'qitishga jiddiy e'tibor qaratish va o'quv jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish zarur.

– O‘zbekistonda turizmning jadal rivojlanishi uchun transport infratuzilmasini kompleks takomillashtirish, ya’ni yo‘l sifatini yaxshilash, jamoat transportini rivojlantirish, aeroportlarni modernizatsiya qilish va transport xizmatlari sifatini nazorat qilish.

Ushbu takliflarni amalga oshirish natijasida O‘zbekiston turizm infratuzilmasi takomillashadi, xizmat sifati oshadi, transport tizimi muammolari hal etilinadi, natijada turizm jozibadorligi, iqtisodiy foyda va sayyohlar oqimi ko‘payadi.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Branko Protić, et al., (2023). *The importance of tourist infrastructure for the sustainable development of tourism*, Conference: XII naučno–stručni skup sa međunarodnim učešćem planska i normativna zaštita prostora i životne sredine.

Farmon (2024) *O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni*, 18.07.2024 yildagi PF–102–son.

Greel U, et al., (2015) “Smart tourism: Foundations and developments”, *Electronic Markets*, Vol. 75 No.3.

Jovicic (2019). *From the traditional understanding of tourism destination to the smart tourism destination*, *Current Issues in Tourism*, Pages 276–282.

Jumaniyazova R.Sh. (2024). *Turizm infratuzilmasi tushunchasi va uning o‘ziga xos jihatlari, Ijtimoiy–gumanitar fanlarning dolzarb muammolari*.

kunu.uz (2025). *O‘zbekiston va jahon yangiliklari, eng so‘nggi tezkor xabarlar, qiziqarli maqola, intervyu, foto va video materiallar*. [online] Kun.uz. Available at: <https://m.kun.uz>.

lex.uz. (n.d.). *LEX.UZ – O‘zbekiston qonunchiligi*. [online] Available at: <https://lex.uz>.

Mandic A., Mrnjavac Ž., Kordić L. (2018). *Tourism Infrastructure, Recreational Facilities And Tourism Development*, *Tourism and hospitality management*, Vol 24, No.1.

Mustafa, A. M. M. (2019). *The impact of infrastructure on tourism: the case of Sri Lanka*, *Asian Social Science*, 15(7), pp 174–181.

Norchayev A.N. (2021) *Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati*. Toshkent.

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. (2025). *O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi*. [online] Available at: <http://mintrans.uz>

Qaror (2019) *Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora–tadbirlar to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori*, 2019–yil 5–yanvardagi PQ–4095–son.

Qaror (2020) *Tog‘li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiing qarori*, 17.09.2020 yildagi 559–son.

Qaror (2022) *Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori*, 2022–yil 30–apreldagi 232–son.

Qaror (2024) *O‘zbekiston Respublikasida to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag‘batlantirish chora–tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori*, 12.01.2024 yildagi PQ–20–son.

Railway.uz. (2025). *«O‘zbekiston temir yo‘llari» AJ | O‘zbekiston temir yo‘llari*. [online] Available at: <https://railway.uz>.

Raximova U.Z. (2024). *Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalar tahlili, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, –136–142–b.

Stat.uz. (2025). *O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi*. [online] Available at: <https://www.stat.uz>.